**“TASDIQLAYMAN”**
**Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b.**

**____________I. Rustambekov**

**2023-yil “___”-iyun**

| Yurisprudensiya sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi (professional ta’limi darajasida yurisprudensiya sohasida o‘z fikrini bayon qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarining mavjudligi) | |
|---|---|
| **T/r** | **Savollar** |
| **Fuqarolik huquqi** | |
| **1.** | Fuqarolik qonun hujjatlari nimalarga asoslanadi, ular bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi? |
| **2.** | Qaysi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda analogiya (o‘xshashlik) qo‘llaniladi? |
| **3.** | Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining qanday asoslari mavjud? |
| **4.** | Fuqarolik huquqlari qanday yo‘llar bilan himoya qilinadi? |
| **5.** | Fuqarolik huquqida jismoniy shaxs tushunchasiga ta’rif bering. |
| **6.** | Huquq layoqati deganda nimani tushunasiz? |
| **7.** | Muomala layoqati nima? |
| **8.** | O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati haqida tushuntirib bering. |
| **9.** | Emansipatsiya nima? |
| **10.** | O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati deganda nimani tushunasiz? |

| | |
|---|---|
| **11.** | Qanday hollarda fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin? |
| **12.** | Fuqaroning muomala layoqatini cheklash qanday hollarda amalga oshiriladi? |
| **13.** | Vasiylik va homiylik deganda nimani tushunasiz? |
| **14.** | Fuqaroni qanday hollarda bedarak yo‘qolgan deb topish mumkin? |
| **15.** | Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish oqibatlari haqida nimalarni bilasiz? |
| **16.** | Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish qanday tartibda amalga oshiriladi? |
| **17.** | Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari nimalardan iborat? |
| **18.** | Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish qoidalari haqida nimalarni bilasiz? |
| **19.** | Yuridik shaxs tushunchasiga ta’rif bering. |
| **20.** | Yuridik shaxslarning turlari haqida nimalarni bilasiz? |
| **21.** | Jamoat birlashmalari nima? |
| **22.** | Fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra, mol-mulk qanday turlarga bo‘linadi? |
| **23.** | Ko‘chmas mol-mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi qanday? |
| **24.** | Xususiy turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar nima? |
| **25.** | Shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar deganda nimani tushunasiz? |
| **26.** | Bitimning og‘zaki shakliga ta’rif bering. |
| **27.** | Bitimning yozma shakliga ta’rif bering. |
| **28.** | Bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz? |
| **29.** | O‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz? |

| | |
|---|---|
| **30.** | Yanglishish ta’sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz? |
| **31.** | Ishonchnoma va uning shakliga qo‘yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz? |
| **32.** | Notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar qaysilar? |
| **33.** | Da’vo muddati nima va uning o‘tishi qanday hollarda to‘xtatiladi? |
| **34.** | Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablarni sanang. |
| **35.** | Mulk huquqining subyektlari kimlar bo‘lishi mumkin? |
| **36.** | Servitut huquqi nima? |
| **37.** | Operativ boshqarish huquqi deganda nimani tushunasiz? |
| **38.** | Xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo‘lishini tushuntirib bering. |
| **39.** | Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddatni tushuntirib bering. |
| **40.** | Egasiz ashyo deganda nimani tushunasiz? |
| **41.** | Topilma nima? |
| **42.** | Xazina deganda nimani tushunasiz? |
| **43.** | Mulk huquqining bekor bo‘lish asoslarini tushuntirib bering. |
| **44.** | Natsionalizatsiya va rekvizitsiya deganda nimani tushunasiz? |
| **45.** | O‘zboshimchalik bilan imorat qurish va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz? |
| **46.** | Respublika mulkiga ta’rif bering. |
| **47.** | Munitsipal mulk deganda nimani tushunasiz? |
| **48.** | Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat? |

| | |
|---|---|
| **49.** | Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslarini tushuntirib bering. |
| **50.** | Majburiyatni bajarish joyi deganda nimani tushunasiz? |
| **Fuqarolik protsessual huquqi** | |
| **1.** | Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ishlarni ko‘rishda sud tarkibi e’lon qilinadi. Sud tarkibi deganda nimani tushunasiz. Ishni ko‘rishni boshlagan sudya ta’tilga chiqqanida sud ishining taqdiri nima bo‘ladi. |
| **2.** | Fuqarolik protsessual muomala layoqati deganda nimani tushunasiz? Muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan ariza berilishing oqibatlari. |
| **3.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritish bilan bog‘liq sud xarajatlarini taqsimlash tartibini tushuntiring. |
| **4.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ashyoviy dalillarni saqlash va qaytarib berish tartibini tushuntiring. |
| **5.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillik deganda nima tushuniladi? |
| **6.** | Da’vogarning tanlovi bo‘yicha sudlovga tegishlilik qoidalarini tushuntiring. |
| **7.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda birgalikda ishtirok etish |
| **8.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquqiy vorislik nima? |
| **9.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda tez buziladigan ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish tartibini tushuntiring. |
| **10.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qo‘shimcha va qayta ekspertizaning farqini tushuntiring. |
| **11.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda isbotlashdan ozod qilish holatlar qaysilar. |
| **12.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud muhokamasining oshkoraligi deganda nima tushuniladi. |
| **13.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda fuqarolik ishi deganda nima tushuniladi. |
| **14.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishni ko‘rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmasligini tushuntiring. |

| | |
|---|---|
| **15.** | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibini rad qilish asoslarini tushuntiring. |
| **16.** | Sudga murojaat qilish shaklini tushuntiring. |
| **17.** | Fuqarolik sud hujjatlarini turlarini ayting. |
| **18.** | Sud ishlari yuritiladigan til prinsipini tushuntiring. |
| **19.** | Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga qanday ishlar taalluqli. |
| **20.** | Fuqarolik protsessida ishda ishtirok etuvchi shaxslar kimlar? |
| **21.** | Sud xarajatlari tushunchasi va uning turlarini tahlil qiling. |
| **22.** | Davlat boji undirish obyektlarini tushuntiring. |
| **23.** | Ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarga nimalar kiradi? |
| **24.** | Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda davlat bojini qaytarish asoslari va tartibini tushuntiring. |
| **25.** | Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda sud buyrug‘i qaysi talablar bo‘yicha beriladi? |
| **26.** | Sud buyrug‘i berish tartibi va muddatini tushuntiring. |
| **27.** | Sud buyrug‘ining sud hal qiluv qaroridan qanday farqli jihatlari mavjud? |
| **28.** | Sudyaning ish yuritishni to‘xtatib turish majburiyatini tushuntiring. |
| **29.** | Ish yuritishni tugatish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlarini tahlil qiling. |
| **30.** | Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari va huquqiy oqibatini tushuntiring. |
| **31.** | Arizani qaytarish asoslari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil qiling. |
| **32.** | Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari va muddatlarini aniqlang. |
| **33.** | Fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish muddatlarini ayting. |

| | |
|---|---|
| **34.** | Sud qaysi hollarda ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin? |
| **35.** | Sirtdan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring? |
| **36.** | Apellatsiya shikoyati berish muddati va uni ko‘rib chiqadigan sudlarga to‘xtalib o‘ting. |
| **37.** | Birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini apellyatsiya tartibida bekor qilish uchun asoslarini tushuntiring. |
| **38.** | Apellatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) huquqi. |
| **39.** | Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini ayting. |
| **40.** | Birinchi instansiya sudi ajrimlari ustidan xususiy shikoyat berish va protest keltirish tartibi va muddati qancha? |
| **41.** | Kassatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi, muddati va kassatsiya shikoyatini (protestini) ko‘radigan sudga to‘xtalib o‘ting. |
| **42.** | Ijro varaqasi berish tartibini tushuntiring. |
| **43.** | Birinchi instansiya sudining apellatsiya shikoyatini (protestini) olganidan keyingi harakatlarini ayting. |
| **44.** | Kassatsiya shikoyatida (protestida) nimalar ko‘rsatiladi. |
| **45.** | Ijro varaqasida nimalar ko‘rsatiladi. |
| **46.** | Isbotlash vositalariga nimalar kiradi. |
| **47.** | Da’voni ta’minlash choralarini ayting. |
| **48.** | Sudga beriladigan arizada nimalar ko‘rsatiladi. |
| **49.** | Da’vo arizaga qanday hujjatlar ilova qilinadi. |
| **50.** | Qarshi da’voni qabul qilish shartlarini ayting. |
| **Mehnat huquqi** | |

| | |
|---|---|
| **1.** | Mehnat shartnomasining tushunchasini ochib bering. |
| **2.** | Mehnat shartnomasi qanday muddatlarga tuziladi? |
| **3.** | Qanday hollarda ishga qabul qilish g‘ayriqonuniy ravishda rad etilgan deb hisoblanadi? |
| **4.** | Kimlar bilan ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi? |
| **5.** | Mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslarini aytib bering. |
| **6.** | Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilishni tushuntirib bering. |
| **7.** | Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslarini sanab bering. |
| **8.** | Mehnat shartnomasi qanday hollarda taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha bekor qilinadi? |
| **9.** | Ishga tiklash huquqiga kimlar ega? |
| **10.** | Xodim qanday hollarda ishdan chetlashtiriladi? |
| **11.** | Qaysi mehnat nizolari bevosita tuman (shahar) sudlarida ko‘rilishi lozim? |
| **12.** | Mehnat nizolari bo‘yicha qanday da’vo muddatlari qo‘llaniladi? |
| **13.** | Kimlar mehnat nizolarini ko‘rishni so‘rab sudga murojaat qilish huquqiga ega? |
| **14.** | Ish beruvchi tashabbusi bilan homilador ayollar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda qanday kafolatlarga rioya qilinishi lozim? |
| **15.** | Yetkazilgan zarar uchun xodim qaysi hollarda ish beruvchi oldida to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi? |
| **16.** | Ish vaqti va uning normal muddati haqida ma’lumot bering. |
| **17.** | Ish vaqtining qisqartirilgan muddati kimlar uchun belgilanadi? |
| **18.** | To‘liqsiz ish vaqti haqida ma’lumot bering. |
| **19.** | Tungi vaqtdagi ishning muddati to‘g‘risida ma’lumot bering. |

| | |
|---|---|
| **20.** | Ish vaqti qanday jamlab hisobga olinadi? |
| **21.** | Bayram (ishlanmaydigan) kunlari haqida ma’lumot bering. |
| **22.** | Bayram (ishlanmaydigan) kunlari ishga jalb etishning cheklanishi mumkinmi? |
| **23.** | Kimlarga yillik uzaytirilgan asosiy ta’til beriladi? |
| **24.** | Kimlarga yillik qo‘shimcha ta’tillar beriladi? |
| **25.** | Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta’tilini berish tartibi haqida ma’lumot bering. |
| **26.** | Qonunchilikda belgilangan ijtimoiy ta’tillar haqida ma’lumot bering. |
| **27.** | Xodimlar qaysi hollarda ta’tilni uzaytirish yoki boshqa muddatga ko‘chirish huquqiga egadirlar? |
| **28.** | Xodimlar qanday turdagi ijtimoiy ta’tillar olish huquqidan foydalanadilar? |
| **29.** | Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta’tillar haqida ma’lumot bering. |
| **30.** | Foydalanilmagan ta’tillar uchun pullik kompensatsiya to‘lash tartibini tushuntirib bering. |
| **31.** | Korxonada mehnat tartibi qanday belgilanadi? |
| **32.** | Xodimning majburiyatlarini sanab bering. |
| **33.** | Ish beruvchining majburiyatlarini sanab bering. |
| **34.** | Mehnat intizomini ta’minlash usullarini sanang. |
| **35.** | Intizomiy jazolarni sanab bering. |
| **36.** | Intizomiy jazolar kim tomonidan qo‘llaniladi. |
| **37.** | Intizomiy jazoni qo‘llash muddatlarini tushuntirib bering. |
| **38.** | Intizomiy jazoning amal qilish muddatini tushuntirib bering. |

| | |
|---|---|
| **39.** | Intizomiy jazo choralari deganda nimani tushunish kerak? |
| **40.** | Intizomiy jazoning amal qilish muddati, tugallanishi va olib tashlanishi haqida ma'lumot bering? |
| **41.** | Ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga qancha miqdorda ishsizlik nafaqasi to'lanadi? |
| **42.** | Haq to'lanadigan jamoat ishlarining asosiy turlarini sanab bering. |
| **43.** | Ish haqining tuzilishini yoritib bering? |
| **44.** | Mehnatga haq to'lash muddatlarini tushuntirib bering. |
| **45.** | Xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqini berish tartibini aniqlang? |
| **46.** | Tungi vaqtdagi mehnat uchun haq to'lash tartibini yoritib bering? |
| **47.** | Kimlar ish beruvchilar bo'lishi mumkin? |
| **48.** | Jamoa shartnomasining tushunchasi va shakli haqida ma'lumot bering? |
| **49.** | Jamoa kelishuvining mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumot bering? |
| **50.** | Mehnat shartnomasining rekvizitlari nima? |
| **Jinoyat huquqi** | |
| **1.** | O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi vazifalari nimalardan iborat? |
| **2.** | O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi mazmun-mohiyatini ochib bering. |
| **3.** | O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining odillik prinsipi mazmun-mohiyatini ochib bering. |
| **4.** | Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilish masalasini yoritib bering. |
| **5.** | Jinoyat va ijtimoiy xavfli qilmish tushunchalarini ayting. |

| | |
|---|---|
| **6.** | Jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra tasniflashda qanday mezon asos qilib olingan? |
| **7.** | Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra qanday tasniflanadi? |
| **8.** | Jinoyatlarning predmeti nima va jinoyat ob’ektidan farqi nima. O‘zbekiston Respublikasi JK dan amaliy misollar bilan farqli jihatlarini tushuntirib bering. |
| **9.** | Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy va fakultativ belgilari hamda ularning ahamiyatini ayting. |
| **10.** | Jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarini jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati nimalarda ifodalanadi? |
| **11.** | Jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgilarining ahamiyati va ularning roli qanday? |
| **12.** | Murakkab aybli jinoyatlarni tushuntirib bering. Bunday turdagi jinoyatlar to‘g‘risida qanday holatlarda gapirish mumkin? |
| **13.** | Jinoyat motivi va maqsadining jinoyat-huquqiy ahamiyati nimadan iborat? Ularning farqi nimada? |
| **14.** | Yuridik va faktik xatolarni aytib bering. |
| **15.** | Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar yo‘qligi tufayli uning yoshi noma’lum bo‘lgan hollarda mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi qanday hal qilinadi? |
| **16.** | Tamom bo‘lmagan jinoyatning qanday turlari mavjud va ularning jinoyat-huquqiy mohiyati nimada? |
| **17.** | Zaruriy mudofaa hamda oxirgi zaruratning farqli jihatlarini tahlil qiling. |
| **18.** | Bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi nima va qanday turlarini mavjud? |
| **19.** | Davomli jinoyatlar va ularning takroran sodir etilgan jinoyatlardan farqli jihatlarini tahlil qiling. |
| **20.** | Ishtirokchilik turlari mazmun-mohiyatini ochib bering. |
| **21.** | Ishtirokchilik shakllari mazmun-mohiyatini yoritib bering. |
| **22.** | Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadini yoriting. |
| **23.** | Jinoiy jazo shakllari: asosiy, qo‘shimcha va aralash turdagi jazolarni bayon qiling. |

| | |
|---|---|
| **24.** | Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo kimlarga nisbatan tayinlanmaydi? |
| **25.** | Jazo tayinlashning umumiy asoslari nimalardan iborat? |
| **26.** | Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasini yoriting. |
| **27.** | Bir qancha jinoyatlar yuzasidan jazo tayinlashni tahlil qiling. |
| **28.** | Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashni tahlil qiling? |
| **29.** | Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoiy jazodan ozod qilishdan qaysi belgilari bilan farq qiladi? |
| **30.** | Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlarini tahlil qiling? |
| **31.** | Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish tartibi qanday? |
| **32.** | Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartlarini yoriting? |
| **33.** | Jazoni ijro etish muddatlari o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning asoslarini yoriting? |
| **34.** | Shartli hukm qilish asoslari va shartlari nimalardan iborat? |
| **35.** | Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kimlarga va qanday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga qo‘llanilmaydi? |
| **36.** | Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalari qanday? |
| **37.** | Sud jazo tayinlash chog‘ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog‘i vaqtini qanday hisoblaydi? |
| **38.** | Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilishning qanday asoslari mavjud? |
| **39.** | Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash asoslari va tartibini yoriting? |
| **40.** | Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo va majburlov choralarining qanday turlari mavjud? |
| **41.** | Jinoyat qonunining tuzilishi? |
| **42.** | Jinoyat-huquqiy norma deganda nimani tushunasiz? |

| | |
|---|---|
| **43.** | Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi kimlarga nisbatangina qo‘llaniladi? |
| **44.** | Jinoyat tarkibi elementlari va belgilarini aytib bering. |
| **45.** | Jinoyat subyekti tushunchasi va uning belgilari. |
| **46.** | Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi va uning jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. |
| **47.** | Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tushunchasi va belgilari. |
| **48.** | Jinoyatga suiqasd qilish tushunchasi va turlari. |
| **49.** | Ekssess bajaruvchi haqida ma’lumot bering. |
| **50.** | Jinoyatga daxldorlik tushunchasi va uning turlari. |
| **Jinoyat-protsessual huquqi** | |
| **1.** | Sud muhokamasida taraflar muzokarasining mazmuni va tartibini tushuntiring |
| **2.** | Ayblov xulosasi nima? |
| **3.** | Eksperiment tergov harakatini o‘tkazish tartibi va unga qo‘yilgan talablar nimalardan iborat? |
| **4.** | Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish qay tartibda amalga oshiriladi? |
| **5.** | Ekspertizaning tekshirish obyektlariga nimalar kiradi? Ularga yana nimalarni kirita olasiz? |
| **6.** | Yuzlashtirish tergov harakatini o‘tkazish asoslari va tartibini tushuntirib bering? |
| **7.** | Dastlabki tergovni to‘xtatish asoslari va tartibini tushuntirib bering? |
| **8.** | Ushlab turish asoslari va tartibini tushuntirib bering? |
| **9.** | Dalillarni qayd etishda yordamchi usullardan foydalanish tartibini tushuntirib bering? |
| **10.** | Jinoyat ishlari yuritiladigan til prinsipi va uning mazmunini tushuntirib bering? |

| | |
|---|---|
| **11.** | Sudyalarning mustaqilligi deganda nimani tushunasiz? |
| **12.** | Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipining manmun-mohiyatini tushuntirib bering? |
| **13.** | Aybsizlik prezumpsiyasi deganda nimani tushunasiz? |
| **14.** | Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqini tushuntirib bering? |
| **15.** | Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari nimalardan iborat? |
| **16.** | Jinoyat protsessi funksiyalari va ularning ahamiyatini tushuntirib bering? |
| **17.** | Jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabablari va asoslarini tushuntirib bering? |
| **18.** | Jinoyat to‘g‘risidagi ariza va xabarlarga qo‘yilgan talablarni tushuntirib bering? |
| **19.** | Jinoyatga oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar haqida fikr yuriting. |
| **20.** | Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish asoslarini bayon eting. |
| **21.** | Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash asoslarini bayon qiling. |
| **22.** | Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati qanday amalga oshiriladi? |
| **23.** | Alohida toifadagi jinoyat ishlariga qaysi toifadagi ishlar kiradi? |
| **24.** | Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarda kimlarning ishtirok etishi shart? |
| **25.** | Jinoyat ishlarida himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan hollarni tushuntirib bering? |
| **26.** | Ayblash va hukm qilish uchun asoslarni tushuntirib bering? |
| **27.** | Isbot qilish ishtirokchilariga kimlar kiradi? |
| **28.** | Protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga ko‘ra isbot qilishda taqiqlangan holatlarni tushuntirib bering? |
| **29.** | Dalillarning maqbul emaslik shartlarini tushuntirib bering? |

| | |
|---|---|
| **30.** | Guvoh va jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga kimlar kiradi? |
| **31.** | Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish tartibi va asoslarini tushuntirib bering? |
| **32.** | Himoyachining, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarni tushuntirib bering? |
| **33.** | Jinoyat protsessida qanday fuqaroviy da’volar ko’riladi? |
| **34.** | Qisman reabilitatsiya etish asoslarini tushuntirib bering? |
| **35.** | Dalil tushunchasi va uning turlari haqida ma’lumot bering? |
| **36.** | Dalillarga baho berish tartibini tushuntirib bering? |
| **37.** | Qo‘shimcha so‘roq asoslarini tushuntirib bering? |
| **38.** | Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arzning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering? |
| **39.** | Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tugatish yoki o‘zgartirish tartibi haqida fikr yuriting. |
| **40.** | Jinoyat ishi bo‘yicha yarashuv tartibi va talablari haqida ma’lumot bering? |
| **41.** | Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning mazmunini yoriting. |
| **42.** | Jinoyat ishini surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibini tushuntirib bering? |
| **43.** | Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish uchun asoslarini tushuntirib bering? |
| **44.** | Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituv o‘tkazish asoslarini tushuntirib bering? |
| **45.** | Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituvni o‘tkazish muddatlari qanday? |
| **46.** | Sud majlisida raislik qiluvchi va uning vazifalari haqida fikr yuriting. |
| **47.** | Sudlanuvchini yangi ayblov bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda sudning harakatlari? |
| **48.** | Taftish tayinlash asoslarini tahlil qiling |

| | |
|---|---|
| **49.** | Narsa va hujjatlarni taqdim qilish tergov harakatining mazmunini izohlang. |
| **50.** | Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishning o‘ziga xos jihatlarini tushuntirib bering? |
| **Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar** | |
| **1.** | O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi haqida aytib bering. |
| **2.** | Odil sudlov va uning demokratik prinsiplarinini tushuntirib bering. |
| **3.** | Konstitusiyaviy sudga murojaatga qo‘yiladigan talablarni ayting. |
| **4.** | Konstitusiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini sanab bering. |
| **5.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering. |
| **6.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlarini tushuntirib bering. |
| **7.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi faoliyatini muhokama qiling. |
| **8.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini qabul qilish tartibini tushuntirib bering. |
| **9.** | Sud ishlari yuritiladigan til haqida nimalarni bilasiz? |
| **10.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkin? |
| **11.** | Harbiy sudlar tarkibini aytib bering. |
| **12.** | Qanday turdagi ishlar harbiy sudlar sudloviga tegishli hisoblanadi? |
| **13.** | Sudyalikka nomzodlarga qo‘yilgan talablarni aytib bering. |
| **14.** | Xalq maslahatchilariga qo‘yilgan talablarni aytib bering. |
| **15.** | Sudyaning vakolat muddatlar haqida ma’lumot bering. |
| **16.** | Sudyaning qasamyod qabul qilish tartibini aytib bering. |

| | |
|---|---|
| **17.** | Sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi va uni uzaytirish tartibini aytib bering. |
| **18.** | Sudyaning vakolatlarini to‘xtatishga sabab bo‘ladigan holatlarini aytib bering. |
| **19.** | O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga zid bo‘lsa, qanday tartibda bekor qilinadi? |
| **20.** | Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablarni aytib bering. |
| **21.** | Prokuror nazorat hujjatlarini sanab bering. |
| **22.** | Prokuror nazorat hujjati hisoblangan protest haqida aytib bering. |
| **23.** | Prokuror nazorat hujjati hisoblangan taqdimnoma haqida aytib bering. |
| **24.** | O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi? |
| **25.** | O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari qaysilar hisoblanadi? |
| **26.** | Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat? |
| **27.** | Prokuratura faoliyatining asosiy prinsiplari qaysilar? |
| **28.** | Prokuratura organlarining tizimi qanday tuzulmalardan iborat? |
| **29.** | O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, prokurorlarning vakolat muddati qancha? |
| **30.** | O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va uni tayinlash tartibi qanday? |
| **31.** | O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi masalasini aytib bering? |
| **32.** | Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida qanday asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boradi? |
| **33.** | Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tushuntirib bering. |

| | |
|---|---|
| **34.** | Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi kimning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas? |
| **35.** | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi qanday? |
| **36.** | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vazifalariga nimalar kiradi? |
| **37.** | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining hisobdorligi masalasini yoriting? |
| **38.** | Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi? |
| **39.** | Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qanday prinsiplardan iborat? |
| **40.** | Ichki ishlar organlarining tizimi qanday tuzilmalardan iborat? |
| **41.** | O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri kim tomonidan va qanday tartibda lavozimga tayinlanadi? |
| **42.** | Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash shartlarini tushuntirib bering. |
| **43.** | Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish tartibini tushuntiring. |
| **44.** | Ichki ishlar organi xodimini xizmatdan bo‘shatish tartibini tushuntiring. |
| **45.** | O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalarini tushuntirib bering. |
| **46.** | O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tizimini yoriting. |
| **47.** | Milliy gvardiyaning bo‘ysunishi va hisobdorligi, shuningdek Milliy gvardiyaning mansabdor shaxslarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibini tushuntirib bering. |
| **48.** | Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga (xizmatga) qabul qilish tartibini tushuntirib bering. |
| **49.** | Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisini (xodimini) bo‘shatish tartibi va asoslarini tushuntiring. |
| **50.** | Milliy gvardiyaning huquqlari tushuntirib bering. |